

HANIFIY MAZHABI ULUMUL HADIS FANI QOIDALARINING ETIMOLOGIYASI

Mustafoev Abubakr Muhiddin o'g'li
Xalqaro Islom Akademiyasi "Islomshunoslik
va islom sivilizatsiyasini o'rganish ICESCO"
kafedrası tayanch doktoranti
mustafoev.abubakr@bk.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada Hanifiy mazhabi ulumul hadis fani qoidalarining etimologiyasi uning rivojlanish tendensiyasi haqida so'z yuritilgan. No'mon ibn Sobit (Abu Hanifa)ning ulumul hadis, mustalahul hadis, hadisshunoslik sohalari borasida joriy qilgan qoida va tamoyillari yoritib berilgan. Shuningdek Abu Hanifa davridan boshlab Abu Bakr Jassosgacha bo'lgan davrda ushbu qoida va tamoyillarning rivojlanishi va shakllanishi olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar asosida atroflicha yoritib berilgan. Bundan tashqari hanifiy mazhabining ulumul hadis va hadisshunoslik sohasida xizmat qilgan buyuk olimlar, ularning qilgan yangiliklari, qoldirgan bebaho asarlari yoritib berilgan.

Kalit so'z: hadis, ohod, sahih, ijthod, istinbot, "haddasana", sunan, shozz.

Hech kimga sir emaski, bir kishini mujtahidligini e'tirof etish uning diniy ilmlarning har bir sohasida mujtahid ekanini e'tirof etishdir. Mujtahid barcha shariy hukmlarda ijthod¹ qila olish darajasiga yetgan shaxsdir.² U o'zi puxta o'rganib, tuzgan usul va qoidalar asosida hukm chiqarishga qodir bo'ladi.

Mana shu mantiqiy tamoyilga asoslanib aytamizki, Imom Abu Hanifa ham Payg'ambar (s.a.v.) hadislaridan shar'iy hukmlarni istinbot³ qila olganidek, xabarlariga aniqlik kiritish uchun o'zi ishlab chiqqan qoidalar asosida ularni sahih va zaifga ajratish saviyasiga ham ega bo'lgan. Rivoyatlar orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish, tarjih qoidalarini joriy qilish tamoyillariga ega bo'lgan.

Garchi Imom Abu Hanifa bu qoidalar majmuini birlashtirib biror bir asar yozib qoldirmagan bo'lsada, yuqoridagi fikrlarni quvvatlaydigan bir qancha ishonchli xabarlar kelgan. Bir qancha usul va hadis olimlari Abu Hanifaning usulul hadis borasidagi qoida va tamoyillarini o'z asarlarida keltirib o'tganlar. Ulardan ba'zilari:

1. Quronning matniga zid kelgan "ohod" xabar qabul qilinmaydi.

Imom Abu Hanifa "ohod" xabarlar Qur'onga zid bo'lmasagina qabul qilinishini aytib o'tgan. "Rasululloh (s.a.v.)ning hadisleri Qur'onga zid bo'lmagan va unga zid bo'lmaydi ham, balki hadislar uning ma'nolarini ochib berish uchun keltirilgan",⁴ deb aytganlar.

¹ Ijthod (arab. — g'ayrat qilish,) — shar'iy hukmni hosil qilish uchun faqihning barcha bilim va toqatini ishga solishi. Shar'iy hukmi kelmagan ishning maxsus qoidalarini ishga solib shar'iy hukmini aniqlash uchun qilinadi. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.(O'zME) 1-jild. 2000 yil

² Jaloliddin Suyutiy. Irshodul muhtadiyn ila nusrotul mujtahidiyn.Iroq: Jomeatul anbar. B. 14

³ Shariy manbalardan hukm chiqarib olish

⁴ No'mon ibn Sobit. Al-olim val mutaallim. Qohira: Xonajiy. 2014. B. 24-25

Shu asosda hanafiy mazhabining eng asosiy usuliy qoidalari kelib chiqdi: “Quronning naslariga muxolif kelgan ohod xabar o`zi sahih emasligiga yoki roviylar tomonidan ba`zi bir qismi unutilganida dalildir. U qayta o`rganib chiqiladi yoki ta`vil qilinadi.

1. Ohod xabarlar qabul qilinishi uchun roviy hadisni qabul qilganidan yetkigunigacha hifzi shart qilinadi.

Hofiz ibn Abu Avvom⁵, Hofiz Abu Abdulloh ibn Bayyi` Hokim Naysoburiy⁶ va Hofiz ibn Abdul Barr Andalusiy⁷ Abu Hanifadan rivoyat qilib aytadilar: “Kishi eshitgan kundan to yetkazgan kunigacha yoddan bilmagan hadisini aytishligi mumkin emas”, dedilar.

Bu xabarlarni qabul qilinishidagi eng qiyin shartlaridan biri hisoblanadi. Bu Imom Abu Hanifaning hadislarni eshitgan kimsalari e`tiboridan kam hadis rivoyat qilganlarining eng asosiy sababidir

2. Imom Abu Hanifa nazdlarida dalil martabalarining bayoni.

Jarh va ta`dil olimlaridan Ibn Muin Abu Hanifadan quyidagicha rivoyat qilgan: "Men avvalo Alloh taoloning kitobidan olaman. Agar undan topa olmasam Rosululloh (s.a.v.) ning sunnatlaridan olaman. Alloh taoloning sunnatlaridan va Rosululloh (s.a.v.) ning sunnatlaridan topa olmasam, sahobalarning qovllaridan olaman. Ulardan xohlaganimning gaplarini olaman, xohlaganimni olmayman. Ularning gapidan boshqalarning gapiga o`tmayman. Qavm ijti hod qildi. Men ham ular ijti hod qilganidek ijti hod qilaman".⁸ Bundan quyidagilar kelib chiqadi:

1. Imom Abu Hanifa nazdida Islom shariatidagi manbalarning tadriji;
2. Sahobalarning aytgan gaplari ham Imom Abu Hanifa nazdida shariatda hujjat o`rnida o`tishi;
3. Tobeinlar aytgan gaplari Imom Abu Hanifa nazdida shariy hujjat o`rniga o`tmasligi;
4. Imom Abu Hanifa nazdida ohod xabarni qiyosdan ustun qo`yganligi.

Abu Hanifaning usulul hadis borasid ishlab chiqqan yana bir qancha qoida va tamoyillar bo`lib, ular: Abu Hanifaning usulul hadis borasid ishlab chiqqan yana bir qancha qoida va tamoyillar bo`lib, ular:

4. Hadisni topshirish asnosida “haddasana” lafzining joizligi.

Hofiz Xatib⁹ Abu Qotndan rivoyat qilib aytadi: “Abu Hanifa menga: “Menga aytib bergin va “haddasaniy”, degin”,¹⁰ dedi”.

5. Ahi bidat va ahli havodan rivoyat qilish joizligi.

6. Faqih olimlarning rivoyati hadis olimlarining rivoyatidan ustunligi.

⁵ Shamsiddin Zahabiy. Manaqibi Imom Abu Hanifa. Haydarobod: Ihyou maarifu nu`maniyya. 2009. B. 33

⁶ Muhammad ibn Abdulloh Naysoburiy. Madxol ila ma`rifati kitabul ikkil. Bayrut: Dor ibn Hazm. 2003. B. 118

⁷ Ibn Abdul Barr. Al-intiqo` fi fazoili aimmati salasatil fuqaho. Qohira. 2018. B. 257

⁸ Ibn Maiyn. At-tarixu bi rivayatid duriy. Saudiya. Jomeatu Malik Abdul Aziz 1979. J. 2. B. 608

⁹ Ahmad ibn Ali ibn Sobit Bag`dodiy (Xatib Bag`dodiy) 392-463 hij.

¹⁰ Xatib Bag`dodiy. Kifaya fi ilmi rivaya. Dairotul maariful usmaniyya. Hindiston: Darul huda. 2010. B. 259-260

Movarounnahr olimlaridan Imom Abu Muhammad Horisiy¹¹ Makkada Abu Hanifa va Avzoiy orasida “roful yadayn” (namozda qo`llarni ko`tarish) masalasidagi munozarani rivoyat qilish asnosida aytib o`tgan.

7. Hadis roviylarni jarh va ta`dil qilish mumkinligi.

Imom Abu Hanifa ko`pgina roviylarni ta`dil (“Ta`dil” -“addala” so`zining masdari bo`lib, lug`atda “adolatli deb topish”)¹² va ba`zilarini jarh(“Jarh» so`zi lug`atda- “yaralash”, “ta`na qilish” kabi ma`nolarni anglatadi. Istiloxda «jarh» deb, roviy yoki guvohga uning gapi e`tiborga olinmasligi yoki unga amal qilinmasligiga sabab bo`luvchi salbiy shaxsiy sifatlarning nisbat berilishiga aytiladi)¹³ qilganlar. Ibrohim ibn Maymun Soig` Marvaziy (vaf. 131-hij), Ja`far ibn Muhammad Boqir (80-148 hij), Hammud ibn Abu Sulaymon Kufiy (vaf. 120-hij), Sufyon ibn Said Savriy (97-121 hij) kabi olimlarni ta`dil qilganlar. Jobir Ju`fiy (vaf. 128 hij), Tolqa ibn Habib, Amr ibn Ubayd Mu`taziliy Basriy (vaf. 142-hij), Mujolid ibn Said Hamadoniy (vaf. 144-hij)ga o`xshagan roviylarni jarh qilganlar.

Bu Imom Abu Hanifa tomonidan ulumul hadis fani borasida ishlab chiqqan qoidalardan ba`zilar bo`lib, ular olimlar tomonidan yozilgan kitoblar zarvaraqlarida saqlanmoqda. Shunisi aniqki Abu Hanifa tomonidan xabarlar tahlili, ularni tarjih qilish, roviylarni jarh va ta`dili va yana ulumul hadis borasida bir qancha qatiy qoidalar majmui ishlab chiqilgan. Bugungi kunda biz uchratadigan ibora va istilohlar esa keying olimlar tomonidan o`sha qoidalar uchun ishlab chiqilgan.

Imom Abu Yusuf davrlarida ulumul hadis qoidalarining shakllanishi.

Abu Hanifadan so`ng mustalahul hadis fani qoidalarini ishlab chiqishni shogirdi Imom, Hofiz¹⁴ Abu Yusuf Yoqub ibn Ibrohim Qozi Ansoriy (113-182 hij) davom ettirdi. Abu Yusuf o`zining kitoblarida xabarlarni qabul qilish, uning usullari, qabul qilinadigan va rad qilinadigan xabarlar haqida aytib o`tdi.

1. Shozz xabarlar qabul qilinmaydi.

Abu Yusuf ozining “Roddun ala siyaril Avzoiy” asarida Imom Avzoiyning: “Shozz bo`lsa ham omma bilgan hadisni qabul qilsa bo`ladi”, degan gaplariga javoban, shozz xabarlar qabul qilinmasligi, faqatgina faqih olimlar bilgan, Kitob va sunnatga muvofiq kelgan hadislargina dalil sifatida qabul qilinishini aytib o`tgan. Va boshqa bir o`rinda shozz hadisni ta`riflab: “Kitobga va sobit sunnatga xilof bo`lgan, faqihlarga ma`lum bo`lmagan, amal qilinmaydigan xabar shozz bo`ladi”,¹⁵ degan.

2. Ohod Xabarlarni qabul qilish uchun ular Kitob(Quron)ga va (olimlarga) ma`lum bo`lgan sunnatga xilof kelmasligi shart qilinishi.

Abu Yusuf ozining “Roddun ala siyaril Avzoiy” asarida ohod xabarni qabul qilish shartlarini birma bir sanab bergan. Faqih o`zining asarida Imom Avzoiyga

¹¹ Horisiy. Musnadi Abu Hanifa. Bayrut. DKI. 2009. B. 144

¹² Sayyid Abdulmajid G`ovriy. Mavsua ulumul hadis va fununih. – Damashq: Dor ibn Kasir, 2007. – J. 1. –B. 595-596

¹³ Sayyid Abdulmajid G`ovriy. Mavsua ulumul hadis va fununih. – Damashq: Dor ibn Kasir, 2007. – J. 1. –B. 595-596

¹⁴ Ibn Avvom. Manoqib. Makka: Maktabatu Imdodiyya. 2010. B. 98

¹⁵ Abu Yusuf. Roddun ala siyaril Avzoiy. Haydarobod: Ihyou maarifu Nu`maniyya. 2009. B. 24

xitoban: “Faqihlar bilgan va (olimlar) jamoasi xabardor boʻlgan Kitob va sunnatga muvofiq kelgan hadislarni lozim tut. Hukmlarni shularga qiyosla. Garchi rivoyat qilinsada Quronga xilof kelgan narsa Rosululloh (s.a.v.) dan emasdir”,¹⁶ degan.

3. Quronni mutavotir sunnat bilan nasx qilish joizligi.

Imom Abul Hasan Karxiy Imom Abu Yusufdan rivoyat qilib aytadi: “Ilmni yaqiniy ilmni vojib qiladigan mutavotir sunnat bilan Quronni nasx qilish joiz. Ikki maxsiga masʼh tortish masalasidek”.¹⁷

4. Hadlarni joriy qilishda ohod xabarlar qabul qilinishi.

Faqih oʻzining “Amaliy”¹⁸ asarida: “Hadlar ohod xabar bilan sobit boʻladi”,¹⁹ degan.

5. Sahobaning gapi hujjat sifatida qabul qilinishi.

Olim oʻzining “Kitabul xaroj” asarida sahobalarning gapi oʻzidan keyingilar uchun hujjat boʻlishini keltirib oʻtgan.

Imom Muhammad davrlarida ulumul hadis qoidalarining shakllanishi.

Soʻngra Abu Hanifa va Abu Yusufdan soʻng mustalahul hadis fani qoidalarini ishlab chiqishni Imom, Hofiz, Mujaahid, lugʻat olimi²⁰ Muhammad ibn Hasan Shayboniy (131-189 hij) davom ettirdi. Bu tengsiz Imom oʻzining asarlarida juda koʻp ilmlarni tarqatdi. Imom Muhammad oʻzining “Kitabul hujjati ala ahli madaynati” asarida usulul hadisninh koʻpgina qoidalariga ishora qilib oʻtgan. Ulardan baʼzilari:

1. Asar(xabar, hadis, sahobalar gapi) boʻlgan joyda qiyosga oʻrin yoʻq

2. Ohod xabar umumiy balvoda²¹ qabul qilinmaydi.

Olim oʻzining “Kitabul hujjat” asarida: “Umumiy balvo (hojat tushgan)da ohod xabar qabul qilinmaydi”,²² degan.

3. Xabarlarni bir biriga xilof kelganda eng ishonchlisini olish.

Faqih oʻzining “Kitabul hujjat” asarining koʻp oʻrinlarida shu eng asosiy qoidaga urgʻu berib oʻtadi.

Hanafiy mazhabida mustalahul hadis faniga doir birinchi yozilgan kitob

Yuqorida ulumul hadis borasida hanafiy mazhabi asoschisi va ikki shogirdining qoidalari keltirib oʻtildi. Keyingi davrda Imom Muhammadning fiqh va usul borasid katta shogirdi Imom Qozi Iso ibn Abon (vaf. 221-hij) Rosul (s.a.v.)ning hadislaridan qabul qilish usul va qoidalarini tartiblab alohida kitob yozdi. Bu Hanafiy mazhabida usulul hadis faniga doir yozilgan birinchi asar edi. Bu asarda mutavotir, mashhur va ohod hadis turlari haqida gapirib ularning har biriga alohida toʻxtalgan. Xabarlarning qay biri qabul qilinishi, qasi biri tark

¹⁶ Abu Yusuf. Roddun ala siyaril Avzo'iy. Haydarobod: Ihyou maarifu Nu'maniyya. 2009. B. 31

¹⁷ Abu Bakr Jassos. Al fusul fil usul. Vizaratul avqoful Kuvaytiyya. 1994. J. 1. B. 518

¹⁸ Hoji Xolifa. Kashfuz zunun. 1999: “Ulumul hadis bobiga kirish qismi”. J.1 B. 164

¹⁹ Bazdaviy. Kanzul vusul. B.181, Saraxsiy. Usulus saraxsiy. B. 333-334

²⁰ Abu Bakr Jassos. Al fusul fil usul. Vizaratul avqoful Kuvaytiyya. 1994. J. 1. B. 30-31

²¹ Al Javohir lugʻ. “Ommaviy ehtiyoj”, “Umumiy ehtiyoj”.

²² Muhammad Ibn Hasan Shayboniy. Kitabul hujjati. Bayrut. Alamul kutub. 2009. J.1. B. 217

qilinishi, ularning shartlari, hukmlari aytib o`tilgan. Faqih o`z kitobini “Hujajus sag`ir” deb nomladi.²³

Imom Jassos o`zining “Al-fusul fil usul” asarining “sunnat” bobida Iso ibn Abonning ko`pgina gaplarini dalil qilib keltirib, “Hujajus sag`ir” kitobni juda ko`p zikr qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shayx Muhammad Avvomaning qalamlariga mansub “Faqih imomlar ixtilofida hadisi sharifning o`rni” asari (Tarjimon Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hilol nashr. – T.: 2018).
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Mustalahul hadis. – T.: Sharq, 2011
3. Abdul Majid Juzajoniyning “Muhaddislar va hanafiy fuqaholar nazdida hadis ilmlari” asari (Tarjimon Muhammadrahim Abdulqodirov Hilol nashr. – T.: 2021).
4. Nuriddin Itr. Manhajun naqd fi ulumil hadis. Damashq, Dorul fikr. 2020
5. Uvatov U. Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan o`rni (Al-Buxoriy, Muslim, At-Termiziy): tarix fanlari doktori... dis. avtoref. – T.: Toshkent islom universiteti, 2002.
6. Abdulmajid Turkmoniy. Dirosat fi usul al-hadis ala manhajil hanafiy. Dar Ibn Kasir. –Bayrut.: 2020
7. Abdulmajid Turkmoniy. Al madxal fi usul al-hadis ala manhajil hanafiy. Dar Ar-Rayohiyn. – Urdun.: 2021

²³ Abdul Majid Turkmoniy. Dirosot fi usulil hadis. Bayrut: dor ibn Kasir. 2020. B. 44.